

## INVESTITSIYA DASTURI – AMALDA

Oltiariq tumanidagi 33-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida Investitsiya dasturi asosida "Saddiniso Xabibullo" qurilish firmasi quruvchilari tomonidan 4 mlrd 67 mln so'm mablag' evaziga rekonstruktsiya ishlari olib borildi. Zamonaviy maskanning ish boshlaganidan nafaqat bolajonlar, ota-onalar ham bahad mammun bo'lmoqda.



Bugun bo'lib o'tgan ushbu maktabgacha ta'lim muassasining ochilish marosimida tuman hokimi Sh.Turdaliyev boshchiligidagi sektor rahbarlari, tuman maktabgacha ta'lim bo'limi xodimlari, ota-onalar, nuroniyalar hamda mahalla faollari qatnashdi.

- Bolajonlar uchun barcha qulaylik yaratilgan, - deydi tuman maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'limi midirasi Xolisxon Apandiyeva. - Keng, shinam yotoqxona, oshxona, mashg'ulotlar xonalari, bolalarbop mebel jihozlari, rang-barang o'yinchoq va ko'rgazmali qurollar bolajonlar ixtiyorida. Hovlida bolajonlar uchun yozgi o'yin maydoni barpo etilib, zamonaviy usulda jihozlangan.



Ochilish marosimidan so'ng tadbir ishtirokchilari muassasada tarbiyalanuvchilar uchun yaratilgan sharoitlar bilan tanishdi.

- Prezidentimizning maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish, ayniqsa, chekka qishloq tumanlariga berayotgan e'tiboridan biz, ota-onalar behad mammunmiz, - dedi mahalla faollari. - Shu e'tibor tufayli mahallamizdagi maktabgacha ta'lim muassasasi zamonaviy qiyofa kasb etdi. Bu yerda bolalarni har tomonlama barkamol tarbiyalash, maktabga tayyorlash uchun barcha sharoitlar bor.

**[Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating](#)**

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#)

2022-08-03 15:48:21